

---

## AHOLIGA QULAYLIKLAR YARATILMOQDA

Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan Markaziy dehqon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari sotishga mo'ljallangan arzonlashtirilgan savdo yarmarkasi ish boshlagan. Yarmarkada 32 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari arzon narhlarda sotilmoqda.

Yarmarkada fermer xo'jaliklari va tadbirkorlarimiz o'zlari ishlab chiqargan va yetishtirgan mahsulotlarini aholi dasturxonlariga arzon narxlarda taqdim etmoqdalar.

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov va sektor rahbarlari Markaziy dehqon bozorida bo'lishib, narx-navo bilan tanishdilar hamda oziq-ovqat mahsulotlari zahirasini o'rgandilar. Shuningdek, bozor hududida savdogarlar hamda xaridorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham ko'zdan kechirildi. Mas'ullarga narx-navoni su'niy oshirilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha topshiriqlar berildi.

Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo yarmarkalari 25 mart kuniga qadar faoliyat ko'rsatadi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-17 09:59:55